A dan B gacha Qirg‘iziston Respublikasi yerlari bilan 1 – 2 - nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

1 - nuqtadan 2 - nuqtagacha chegara chizig‘i davlatlararo chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish bo‘yicha mavjud chegara chizig‘i olindi *(shimoliy kenglik 40°46'03,835", sharqiy uzoqlik 73°03'26,065").*

B dan A gacha Xonobod shahri yerlari bilan 2 – 1 - nuqtalar oralig‘ida

chegaralar tavsifi quyidagicha:

2 – nuqtadan chegara chizig‘i shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Andijonsoy kanalining oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 270 metr masofani o‘tib kanal bo‘yida joylashgan 3 – nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°46'10,670", sharqiy uzoqlik 73°03'32,001").*

3 – nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy yo‘nalishda Andijonsoy kanalining suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 252 metr masofani o‘tadi, keyin to‘g‘ri chiziq orqali shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda avval 54 metr masofani o‘tib, sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 91 metr masofani o‘tib, suv ombor to‘g‘onida joylashgan 4 – nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°46'10,427", sharqiy uzoqlik 73°03'46,858").*

4 – nuqtadan chegara chizig‘i Andijonsoy suv ombori (Kampirrovot) to‘g‘oni bo‘ylab shimoliy yo‘nalishda 462 metr masofani o‘tib, suv ombor to‘g‘onida joylashgan 5 – nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°46'25,243", sharqiy uzoqlik 73°03'48,304").*

5 – nuqtadan chegara to‘g‘ri chiziq orqali sharqiy yo‘nalishda avval 20 metr masofani o‘tib, so‘ngra shimoliy yo‘nalishda 22 metr masofani o‘tib, suv ombor to‘g‘onida 6 – nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°46'26,048", sharqiy uzoqlik 73°03'49,093").*

6 – nuqtadan chegara chizig‘i Andijonsoy suv ombori (Kampirrovot) dambasi bo‘ylab sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 205 metr masofani o‘tib, damba bo‘yida joylashgan 7 – nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°46'23,495", sharqiy uzoqlik 73°03'56,550").*

7 – nuqtadan chegara chizig‘i Andijonsoy suv ombori (Kampirrovot) dambasi bo‘ylab shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 235 metr masofani o‘tib, damba bo‘yida joylashgan 8 – nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°46'30,294", sharqiy uzoqlik 73°03'54,970").*

8 – nuqtadan chegara chizig‘i qir-adirliklarning suv ayirg‘ichlari bo‘ylab g‘arbiy yo‘nalishda 258 metr masofani o‘tib, qir-adirliklar bo‘yida joylashgan

9 – nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°46'33,058", sharqiy uzoqlik 73°03'45,979").*

9 – nuqtadan chegara chizig‘i quruq soyning suv oqimi bo‘ylab janubiy yo‘nalishda 185 metr masofani o‘tib, 10 – nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik*

40°46'27,450", sharqiy uzoqlik 73°03'46,529").

10 – nuqtadan chegara chizig‘i Andijon suv ombori (Kampirrovot) sim to‘siq bo‘ylab shimoliy-g‘arbiy-yo‘nalishda 457 metr masofani o‘tib, to‘siq bo‘yida joylashgan 11 – nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°46'35,583", sharqiy uzoqlik 73°03'33,315").*

11 – nuqtadan chegara chizig‘i Andijon suv ombori (Kampirrovot) sim to‘siq bo‘ylab g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 123 metr masofani o‘tib, sim to‘siq bo‘yida joylashgan 12 – nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°46'34,495", sharqiy uzoqlik 73°03'28,287").*

12 – nuqtadan chegara to‘g‘ri chiziq orqali g‘arbiy yo‘nalishda 35 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 13 – nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°46'34,268", sharqiy uzoqlik 73°03'26,822").*

13 – nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 92 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 14 – nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°46'31,851", sharqiy uzoqlik 73°03'28,816").*

14 – nuqtadan chegara quruq chiziq orqali g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 182 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 15 – nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°46'28,846", sharqiy uzoqlik 73°03'22,568").*

15 – nuqtadan chegara chizig‘i Kampirovot kanalining suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda avval 1337 metr masofani o‘tadi, sungra g‘arbiy yo‘nalishda 875 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 16 – nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°46'57,561", sharqiy uzoqlik 73°02'02,001").*

16 – nuqtadan chegara quruq chiziq orqali sharqiy yo‘nalishda 2082 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 17 – nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°47'02,843", sharqiy uzoqlik 73°03'30,472").*

17 – nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda avval 87 metr masofani o‘tib, so‘ngra yo‘lning sharq tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 135 metr masofada qir adirliklarga o‘tadi, va qir-adirliklarining so‘qmoqlari bo‘ylab sharqiy yo‘nalishda 261 metr masofada dam olish maskani sim to‘sig‘iga tutashadi va sim to‘siq

bo‘ylab janubiy-sharqiy yo‘nalishda avval 48 metr masofani o‘tib, so‘ngra shimoliy yo‘nalishda 61 metr masofani o‘tib, to‘siq bo‘yida joylashgan 18 – nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°47'10,860", sharqiy uzoqlik 73°03'41,488").*

18 – nuqtadan chegara chizig‘i dam olish maskani sim to‘siq bo‘ylab shimoliy yo‘nalishda avval 42 metr masofani o‘tib, so‘ngra g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 77 metr masofada dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lning shimol tomoni bilan umumiy g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 243 metr masofani o‘tadi, so‘ngra to‘g‘ri chiziq orqali shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 117 metr masofani o‘tib, 19 – nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°47'17,022", sharqiy uzoqlik 73°03'32,899").*

19 – nuqtadan chegara to‘g‘ri chiziq orqali kanalga tutashadi va kanalning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 321 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 20 – nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°47'26,263", sharqiy uzoqlik 73°03'27,909").*

20 – nuqtadan chegara chizig‘i kanalning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 258 metr masofada qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tib, kanal ko‘prigiga tutashadi va yo‘lning g‘arb tomoni bilan barcha burilishlarini hisobga olgan holda shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 554 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 21 – nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°47'46,921", sharqiy uzoqlik 73°03'44,323").*

21 – nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining sharq tomoni bilan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 120 metr masofada yo‘lni kesib o‘tib, ekin yer chegarasiga tutashadi va ekin yer chegarasi bo‘ylab shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 71 metr masofani o‘tadi, keyin quruq chiziq orqali g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 98 metr masofani o‘tib, soyga tutashadi va soyning suv oqimi bo‘ylab g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlari hisobga olgan holda 121 metr masofada to‘g‘ri chiziq orqali dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 22 – nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°47'51,668", sharqiy uzoqlik 73°03'34,122").*

22 – nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining g‘arb tomoni bilan janubiy yo‘nalishda avval 29 metr masofani o‘tib, so‘ngra yo‘lning shimol tomoni bilan 106 metr masofani o‘tib, kanalga tutashadi va kanalning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 182 metr masofani o‘tib,

kanal bo‘yida joylashgan 23 – nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°47'52,272", sharqiy uzoqlik 73°03'23,243").*

23 – nuqtadan chegara chizig‘i kanalning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan 233 metr masofada to‘g‘ri chiziq orqali ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan janubiy yo‘nalishda avval 57 metr masofani o‘tib, so‘ngra shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 124 metr masofani o‘tib, quruq chiziq orqali janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 100 metr masofani o‘tib, so‘ngra janubiy yo‘nalishda 161 metr masofani o‘tib, soy bo‘yida joylashgan 24 – nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°47'40,032", sharqiy uzoqlik 73°03'10,969").*

24 – nuqtadan chegara chizig‘i soyning suv oqimi bo‘ylab barcha burilishlarini hisobga olgan holda janubiy yo‘nalishda avval 454 metr masofani o‘tib, g‘arbiy yo‘nalishda 555 metr masofani o‘tib, soy bo‘yida joylashgan 25 – nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°47'28,269", sharqiy uzoqlik 73°02'48,301").*

25 – nuqtadan chegara chizig‘i suv oqimi bo‘ylab barcha burilishlarini hisobga olgan holda janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 103 metr masofani o‘tib, suv quvuriga tutashadi va suv quvuri bo‘ylab shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 136 metr masofani o‘tib, quruq chiziq orqali shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda avval 111 metr masofani o‘tib, so‘ngra shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 129 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 26 – nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°47'33,749", sharqiy uzoqlik 73°02'39,228").*

26 – nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining janub tomoni bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 577 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 27 – nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°47'22,398", sharqiy uzoqlik 73°02'21,214").*

27 – nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining janub tomoni bilan umumiy g‘arbiy yo‘nalishda 1396 metr masofani o‘tadi, keyin to‘g‘ri chiziq orqali shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 11 metr masofani o‘tib, kanal ko‘prigida joylashgan 28 – nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°47'17,909", sharqiy uzoqlik 73°01'25,547").*

28 – nuqtadan chegara chizig‘i Kampirrovot kanalining suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda avval 507 metr masofani o‘tib, so‘ngra shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 478 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 29 – nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°47'39,982", sharqiy*

uzoqlik 73°00'59,141").

29 – nuqtadan chegara chizig‘i Kampirrovot kanalining suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan umumiy 755 metr masofani o‘tadi, keyin quruq chiziq orqali shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 24 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 30 – nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°47'54,482", sharqiy uzoqlik 73°00'32,759").*

30 – nuqtadan chegara chizig‘i Kampirrovot kanalining suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 94 metr masofada to‘g‘ri chiziq orqali dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 31– nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°47'56,640", sharqiy uzoqlik 73°00'29,921").*

31 – nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining g‘arb tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 602 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 32– nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°48'15,691", sharqiy uzoqlik 73°00'31,287").*

32 – nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining g‘arb tomoni bo‘ylab sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1139 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 33– nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°48'30,856", sharqiy uzoqlik 73°01'10,348").*

33 – nuqtadan chegara quruq chiziq orqali g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda avval 670 metr masofani o‘tib, keyin g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 231 metr masofani o‘tib, 34– nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°48'40,716", sharqiy uzoqlik 73°00'38,471").*

34 – nuqtadan chegara quruq chiziq orqali shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 509 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 35– nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°48'55,265", sharqiy uzoqlik 73°00'47,883").*

35 – nuqtadan chegara chizig‘i Barpi kanalining suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlari hisobga olgan holda 3022 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 36– nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°50'07,422", sharqiy uzoqlik 73°02'10,662").*

36 – nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining shimol tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 523 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 37– nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°50'11,950", sharqiy uzoqlik 73°01'49,269").*

37 – nuqtadan chegara quruq chiziq orqali shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 53 metr masofani o‘tib, ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi bo‘ylab g‘arbiy yo‘nalishda avval 56 metr masofani o‘tib, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 177 metr masofani o‘tib, so‘ngra g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 51 metr masofani o‘tadi, so‘ng quruq chiziq orqali g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 64 metr masofani o‘tib, boshlang‘ich 1– nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°50'20,461", sharqiy uzoqlik 73°01'48,023").*

Xalq deputatlari Qo‘rg‘ontepa tuman
Kengashining
2023-yil 7-dekabrdagi
VI-64-118-1-23-K/23-son qaroriga
4-ilova

Andijon viloyati Qo‘rg‘ontepa tumani ma’muriy hududiy chegarasining

TAVSIFI

(1-uchastkasi)

Qirg‘iziston Respublikasi, Jalaquduq tumani va Qo‘rg‘ontepa tumanining chegara chiziqlari kesishgan joy, Jalaquduq tumanidan oqib o‘tuvchi Qoradaryo daryosi bo‘yida joylashgan nuqta boshlang‘ich 1 – nuqta deb qabul qilindi *(WGS-84 koordinatalar tizimda, shimoliy kenglik 40°50'54,492", sharqiy uzoqlik 72°46'38,819").*

A dan B gacha Qirg‘iziston Respublikasi yerlari bilan 1 – 2 - nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

1 - nuqtadan 2 - nuqtagacha chegara chizig‘i davlatlararo chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish bo‘yicha mavjud chegara chizig‘i olindi *(shimoliy kenglik 40°48'11,415", sharqiy uzoqlik 72°56'52,411").*

B dan D gacha Xonobod shahri yerlari bilan 2 – 13 - nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

2 – nuqtadan chegara chizig‘i janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 266 metr masofani, so‘ngra g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 14 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 3 – nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 40°48'03,607", sharqiy uzunlik 72°56'56,046")*

3 – nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, zovurga tutashadi va zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 151 metr masofani o‘tib, beton ariq bo‘yida joylashgan 4 – nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°48'03,362", sharqiy uzunlik 72°56'49,628")*

4 – nuqtadan chegara chizig‘i janubiy-sharqiy yo‘nalishda beton ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 214 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘liga tutashadi va yo‘lning shimol tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 67 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 5 – nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°47'56,942", sharqiy uzunlik 72°56'57,594")*

5 – nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining g‘arb tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 210 metr masofani o‘tib, qirg‘oq bo‘yida joylashgan 6 – nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°48'03,367", sharqiy uzunlik 72°56'56,518")*

6 – nuqtadan chegara chizig‘i Qoradaryo daryosining suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘i bilan barcha burilishlarini hisobga olgan holda avval sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 2020 metr masofani o‘tib, so‘ngra janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1162 metr masofada temiryo‘lni kesib o‘tadi , keyin to‘g‘ri chiziq orqali yo‘lga tutashadi va yo‘l bo‘yida joylashgan 7 – nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°47'16,844", sharqiy uzunlik 72°58'53,721")*

7 – nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lning sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 433 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 8 – nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°47'04,072", sharqiy uzunlik 72°59'01,068")*

8 – nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lining shimol tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1477 metr masofani o‘tib, 4R-248 yo‘l bo‘yida joylashgan 9 – nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°46'46,342", sharqiy uzunlik 72°59'59,442")*

9 – nuqtadan chegara quruq chiziq orqali sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 25 metr masofada M-41 avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 10 – nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik40°46'46,019", sharqiy uzunlik 73°00'00,405")*

10 – nuqtadan chegara chizig‘i M-41 avtomobil yo‘lining sharq tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 1535 metr masofada to‘g‘ri chiziq orqali R-136 avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 11 – nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°45'57,065", sharqiy uzunlik 72°59'59,582")*

11 – nuqtadan chegara chizig‘i 4R-136 avtomobil yo‘lini janub tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1537 metr masofani o‘tib, 4R-136 avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 12 – nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°46'07,430", sharqiy uzunlik 73°01'02,998")*

12 – nuqtadan chegara quruq chiziq orqali janubiy yo‘nalishda 177 metr masofada ariqni kesib o‘tib, 13 – nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°46'01,764", sharqiy uzunlik73°01'03,843")*

D dan E gacha Qirg‘iziston Respublikasi yerlari bilan 13 – 14 - nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

13 - nuqtadan 14 - nuqtagacha chegara chizig‘i davlatlararo chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish bo‘yicha mavjud chegara chizig‘i olindi *(shimoliy kenglik 40°43'10,389", sharqiy uzoqlik 72°53'51,279").*

E dan F gacha Qorasuv shahri yerlari bilan 14 – 33 - nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

14 – nuqtadan chegara to‘g‘ri chiziq orqali shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 54 metr masofani o‘tib, ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi bo‘ylab barcha burilishlarini hisobga olgan holda shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 953 metr masofada qishloq ichki yo‘liga tutashadi va qishloq ichki yo‘lining janub tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 204 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 15 – nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°43'36,810", sharqiy uzunlik 72°53'59,388")*

15 – nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining g‘arb tomoni bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 83 metr masofani o‘tadi, keyin quruq chiziq orqali shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda yoysimon shaklda 40 metr masofani o‘tib, ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi bo‘ylab shimoliy yo‘nalishda 92 metr masofada zovurga o‘tadi va sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 222 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 16 – nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°43'39,935", sharqiy uzunlik 72°54'04,554")*

16 – nuqtadan chegara chizig‘i shimoliy-sharqiy yo‘nalishda ariq suv oqimiga qarshi tomonga 484 metr masofada qishloq ichki yo‘liga tutashadi va yo‘lning sharq tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 365 metr masofani o‘tadi, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda ariq suv oqimiga qarshi tomonga 179 metr masofada devorga tutashadi va devor bo‘ylab sharqiy yo‘nalishda 60 metr masofani o‘tadi, so‘ngra quruq chiziq orqali avval sharqiy janubiy-sharqiy yo‘nalishda 39 metr masofani o‘tadi, so‘ng shimoliy yo‘nalishda 28 metr masofada ariqni kesib o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 17 – nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°44'01,262", sharqiy uzunlik 72°54'33,510")*

17 – nuqtadan chegara chizig‘i ariq suv oqimi bo‘ylab barcha burilishlarini hisobga olgan holda g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 599 metr masofani o‘tib, devorga tutashadiva devor bo‘ylab shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 169 metr

masofani o‘tadi, keyin qishloq ichki yo‘lining sharq tomoni bilan avval shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 155 metr, so‘ngra shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 110 metr masofani o‘tib, R-136 avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 18 – nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°44'20,754",sharqiy uzunlik 72°54'13,295")*

18 – nuqtadan chegara chizig‘i R-136 avtomobil yo‘lining janub tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 285 metr masofani o‘tadi, keyin quruq chiziq orqali janubiy-sharqiy yo‘nalishda 18 metr masofani o‘tib devorga tutashadi va devor bo‘ylab sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 36 metr masofani o‘tadi, so‘ngra quruq chiziq orqali janubiy-sharqiy yo‘nalishda 10 metr masofada ariqni kesib o‘tib, shimoliy-sharqiy yo‘nalishda ariq suv oqimiga qarshi tomonga 72 metr masofani o‘tadi, so‘ng quruq chiziq orqali 191 metr masofada haydalma yer chegarasiga o‘tadi va haydalma yer chegarasi bo‘ylab shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 134 metr masofani o‘tib devorga tutashadi va devor bo‘ylab shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 86 metr masofani o‘tib, R-136 avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 19 – nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°44'31,942",sharqiy uzunlik 72°54'34,489")*

19 – nuqtadan chegara chizig‘i R-136 avtomobil yo‘lning janub tomoni bo‘ylab sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 102 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 20 – nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°44'33,440", sharqiy uzunlik 72°54'38,363")*

20 – nuqtadan chegara chizig‘i R-136 avtomobil yo‘lini kesib o‘tadi va Andijon-Xonobod temir yo‘lining janub tomoni bilan (chegara chizig‘i temir yo‘li o‘qidan 20 metr) g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 1845 metr masofani o‘tib temir yo‘l bo‘yida joylashgan 21 – nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°44'52,336", sharqiy uzunlik 72°53'25,351")*

21 – nuqtadan chegara chizig‘i Andijon-Xonobod temir yo‘lining janub tomoni bilan (chegara chizig‘i temir yo‘li o‘qidan 15 metr) g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 780 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 22 – nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°44'52,876", sharqiy uzunlik 72°52'52,648")*

22 – nuqtadan chegara chizig‘i Andijon-Xonobod temir yo‘lining janub tomoni bilan (chegara chizig‘i temir yo‘li o‘qidan 15 metr) g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 114 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 23 – nuqtaga

tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°44'51,133", sharqiy uzunlik 72°52'48,374")*

23 – nuqtadan chegara to‘g‘ri chiziq orqali shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 2 metr masofani o‘tadi, keyin Andijon-Xonobod temir yo‘lining janub tomoni bilan (chegara chizig‘i temir yo‘li o‘qidan 13 metr) janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 545 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 24 – nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°44'38,558", sharqiy uzunlik 72°52'32,236")*

24 – nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining sharq tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 285 metr masofada temir yo‘lni kesib o‘tib ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi bo‘ylab g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 518 metr masofani o‘tadi, so‘ngra to‘g‘ri chiziq orqali g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 9 metr masofada kanalni kesib o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan

25 – nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°44'50,447", sharqiy uzunlik 72°52'13,862")*

25 – nuqtadan chegara chizig‘i janubiy yo‘nalishda kanal suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 79 metr masofada ko‘prikni kesib o‘tadi, keyin to‘gri chiziq orqali avtomobil yo‘liga tutashadi va yo‘lning shimol tomoni bo‘ylab umumiy janubiy-sharqiy yo‘nalishda 339 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 26 – nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°44'40,711", sharqiy uzunlik 72°52'23,775")*

26 – nuqtadan chegara chizig‘i to‘g‘ri chiziq orqali tomorqa devoriga tutashadi va devor bo‘ylab janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 70 metr masofani o‘tib beton ariqqa tutashadi, keyin janubiy yo‘nalishda ariq suv oqimiga qarshi tomoni bilan 152 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 27 – nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°44'33,787", sharqiy uzunlik 72°52'23,139")*

27 – nuqtadan chegara chizig‘i beton ariqni kesib o‘tib Andijon-Xonobod temir yo‘liga tutashadi va temir yo‘lning janub tomoni bilan (temir yo‘li o‘qidan 13 metr) g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 464 metr masofani o‘tib, temir yo‘l bo‘yida joylashgan 28 – nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°44'29,088", sharqiy uzunlik 72°52'04,433")*

28 – nuqtadan chegara chizig‘i Andijon-Xonobod temir yo‘lining janub tomoni bilan (temir yo‘li o‘qidan 13 metr) janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1207 metr

masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 29 – nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°44'02,773", sharqiy uzunlik 72°51'27,998")*

29 – nuqtadan chegara chizig‘i janubiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 114 metr masofani o‘tib, tomorqa devoriga tutashadi va devor bo‘ylab g‘arbiy yo‘nalishda avval 16 metr masofani o‘tadi, keyin janubiy yo‘nalishda 43 metr masofani o‘tib, Andijonsoy kanaliga tutashadi va kanalning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarini hisobga olgan holda g‘arbiy yo‘nalishda 52 metr masofani o‘tib ko‘prikka tutashdi, so‘ngra ko‘prikning sharq tomoni bo‘ylab janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 12 metr masofani o‘tib, ko‘prik bo‘yida joylashgan 30 – nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°43'57,297", sharqiy uzunlik 72°51'26,720")*

30 – nuqtadan chegara chizig‘i ko‘prikdan Andijonsoy kanaliga o‘tadi va kanalning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 811 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 31 – nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°43'53,885", sharqiy uzunlik 72°50'56,541")*

31 – nuqtadan chegara chizig‘i Andijon-Xonobod temir yo‘lining sharq tomoni bilan (temir yo‘li o‘qidan 19 metr) janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1412 metr, keyin to‘g‘ri chiziq orqali g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 3 metr masofani o‘tadi, so‘ngra temir yo‘lining sharq tomoni bilan (temir yo‘li o‘qidan 16 metr) janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 729 metr masofada zovurni kesib o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 32 – nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°42'53,890", sharqiy uzunlik 72°50'11,064")*

32 – nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 1306 metr masofani o‘tadi, keyin dala tuproq yo‘lining shimol tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 178 metr masofani o‘tadi, so‘ngra to‘gri chiziq orqali janubiy yo‘nalishda 31 metr masofani o‘tib 33 – nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°42'44,144", sharqiy uzunlik 72°51'12,784")*

F dan G gacha Qirg‘iziston Respublikasi yerlari bilan 33 – 34 - nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

33 - nuqtadan 34 - nuqtagacha chegara chizig‘i davlatlararo chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish bo‘yicha mavjud chegara chizig‘i olindi *(shimoliy kenglik 40°38‘50,424", sharqiy uzoqlik 72°46‘23,142").*

G dan A gacha Jalaquduq tumani yerlari bilan 34 – 1 - nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

34 – nuqtadan chegara chizig‘i avval ariqning suv oqimi bo‘ylab shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda o‘ng tomoni bilan 635 metr, keyin g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 180 metr, so‘ngra umumiy shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 936 metr, so‘ng shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 250 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 35 – nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°39‘39,968", sharqiy uzoqlik 72°45‘59,285").*

35 – nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 868 metr masofani o‘tib, ariqqa tutashadi va shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda ariq suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 1167 metr masofani o‘tib, Savay 2 mash kanali bo‘yida joylashgan 36 – nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°40‘34,066", sharqiy uzoqlik 72°45‘37,326").*

36 – nuqtadan chegara chizig‘i Savay 2 mash kanalining suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 225 metr masofada avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 37– nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°40'32,139", sharqiy uzoqlik 72°45'28,100").*

37 – nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan avval janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1116 metr, keyin g‘arbiy yo‘nalishda 777 metr, so‘ngra shimoliy yo‘nalishda 561 metr masofani o‘tib, Savay 2 mash kanalining dambasi bo‘yida joylashgan 38– nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°40‘22,693", sharqiy uzoqlik 72°44‘31,761").*

38 – nuqtadan chegara chizig‘i Savay 2 mash kanalining dambasi bo‘ylab suv oqimining chap tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 4255 metr masofani o‘tib, Yorqishloq-Jalaquduq avtomobil yo‘liga tutashadi va yo‘nalishini o‘zgartirmagan holda yo‘lni kesib o‘tib, kanalning dambasi bo‘ylab suv oqimining chap tomoni bilan 3330 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 39– nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40° 38‘ 20,296", sharqiy uzoqlik 72° 40‘ 15,427").*

39 – nuqtadan chegara avval to‘g‘ri chiziq orqali shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 31 metr masofada kanal va dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi bo‘ylab yo‘nalishini o‘zgartirmagan holda 2778 metr, keyin to‘g‘ri chiziq orqali 12 metr masofada Qo‘shtepa-Jalaquduq avtomobil

yo‘li kesib o‘tadi, so‘ngra ariqning suv oqimi bo‘ylab shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 2732 metr masofani o‘tib, Shahrixonsoy kanali bo‘yida joylashgan 0– nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°40‘43,503", sharqiy uzoqlik 72°37‘52,445").*

40 – nuqtadan chegara chizig‘i avval sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Shahrixonsoy kanalining suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 3280 metr masofada Yorqishloq-Xo‘jabod avtomobil yo‘lini kesib o‘tadi, keyin umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 5297 metr masofanida Qo‘rg‘ontepa-Xonobod temiryo‘lini kesib o‘tib, so‘ngra sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 2005 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 41– nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°43‘12,828", sharqiy uzoqlik 72°44‘23,051").*

41 – nuqtadan chegara to‘g‘ri chiziq orqali shimoliy yo‘nalishda 36 metr masofada Shahrixonsoy kanalini va dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 42– nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°43‘13,987", sharqiy uzoqlik 72°44‘22,771").*

42 – nuqtadan chegara chizig‘i avval ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 203 metr, keyin g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 498 metr masofani o‘tib, qishloq ichki yo‘li bo‘yida joylashgan 43– nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°43‘34,194", sharqiy uzoqlik 72°44‘15,168").*

43 – nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining shimol tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 250 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 44– nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°43‘33,185", sharqiy uzoqlik 72°44‘04,668").*

44 – nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining g‘arb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 114 metr masofada Andijon-Qorasuv avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 45– nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°43‘36,696", sharqiy uzoqlik 72°44‘03,187").*

45 – nuqtadan chegara chizig‘i Andijon-Qorasuv avtomobil yo‘lining shimol tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 303 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 46– nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°43‘35,023", sharqiy uzoqlik 72°43‘50,472").*

46 – nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining sharq tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 197 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 37–

nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°43‘41,301", sharqiy uzoqlik 72°43‘49,038").*

47 – nuqtadan chegara chizig‘i avval qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tib, ariqqa tutashadi va g‘arbiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 114 metr, keyin shimoliy yo‘nalishda 256 metr, so‘ngra g‘arbiy yo‘nalishda 120 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 48– nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°43‘48,876", sharqiy uzoqlik 72°43‘37,894").*

48 – nuqtadan chegara chizig‘i shimoliy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 356 metr masofani o‘tadi, keyin sharqiy yo‘nalishda 127 metr, so‘ngra shimoliy yo‘nalishda 301 metr masofada Andijonsoy kanalini kesib o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 49– nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°44‘10,453", sharqiy uzoqlik 72°43‘42,688").*

49 – nuqtadan chegara chizig‘i avval dala tuproq yo‘lining shimol tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 104 metr masofani o‘tib, ariqqa tutashadi va yo‘nalishini o‘zgartirmagan holda suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 122 metr, keyin Andijonsoy kanali dambasiga o‘tadi va sharqiy yo‘nalishda kanal suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 731 metr masofani o‘tib, suv o‘tkazgich quvuri bo‘yida joylashgan 50– nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°44‘10,734", sharqiy uzoqlik 72°44‘23,161").*

50 – nuqtadan chegara to‘g‘ri chiziq orqali shimoliy yo‘nalishda 27 metr masofada Andijonsoy kanalni va ariqni kesib o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 51– nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°44‘11,611", sharqiy uzoqlik 72°44‘23,116").*

51 – nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 306 metr masofani o‘tib, keyin umumiy shimoliy yo‘nalishda 1120 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 52– nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°44‘51,392", sharqiy uzoqlik 72°44‘09,344").*

52 – nuqtadan chegara chizig‘i avval sharqiy yo‘nalishda ariq suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 276 metr, keyin shimoliy yo‘nalishda 76 metr masofada qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tadi, so‘ngra ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1883 metr masofada zovurga tutashadi va zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarini hisobga olgan holda sharqiy-

shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 473 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 53 – nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°45‘53,620", sharqiy uzoqlik 72°44‘55,606").*

53 – nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarini hisobga olgan holda shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 2024 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 54– nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°46‘49,884", sharqiy uzoqlik 72°44‘36,874").*

54 – nuqtadan chegara chizig‘i avval ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 237 metr, keyin to‘g‘ri chiziq orqali qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tib ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 838 metr masofada zovurni kesib o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 55 – nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°47‘17,037", sharqiy uzoqlik 72°44‘23,331").*

55 – nuqtadan chegara chizig‘i avval zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 739 metr masofani o‘tib, keyin g‘arbiy yo‘nalishda 54 metr masofani o‘tib, so‘ngra shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 276 metr masofada Qorag‘unon zovurini kesib o‘tadi va shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda zovur suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 66 metr masofada zovurini kesib o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 56– nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°47‘49,381", sharqiy uzoqlik 72°44‘08,939").*

56 – nuqtadan chegara chizig‘i avval sharqiy yo‘nalishda zovur suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 1260 metr, keyin to‘g‘ri chiziq orqali avtomobil kesib o‘tib, zovurga tutashadi va janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovur suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 415 metr, so‘ng sharqiy yo‘nalishda 1615 metr, so‘ngra janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 415 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 57– nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°47‘47,287", sharqiy uzoqlik 72°46‘35,943").*

